



REFLECTION OF SANGVINIC LANGUAGE CHARACTERISTICS IN THE TEXT

Nazarov Qobilbek

2nd year master's degree

Tashkent State University of Linguistics

Tel: 998941816107

Email: kabel.nazarov.1995@mail.ru

Annotation:

This article describes how the linguistic features of the speech of a person with a sanguine temperament are reflected in Uzbek texts.

Keywords:

Sanguine temperament, mood, text, information in action, emotional-semantic dominance, speaker, listener,

Bizga ma'lumki, matn tushunchasi tilshunoslikda alohida termin sifatida o'rganiladi va bir qancha olimlar matnning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirishgan. Tilshunos E.Qilichev «Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi¹. Tabiiyki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi). To'g'ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a'zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g'ayrilisohiy vositalarning ham o'rni benihoya muhim, hatto ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birotasisiz muloqot jarayoni voqe bo'lolmaydi. Tilshunoslik ayni kommunikatsiya jarayonida ikki tomon (so'zlovchi, tinglovchi) o'rtasidagi "berish-olish"ning asosiy predmeti bo'lgan axborotning lisoniy ifodalanishi va anglanishi masalasiga mutlaqo tabiiy ravishda birinchi darajali diqqatni qaratdi. Zotan, har qanday kommunikatsiyaning pirovard va bosh maqsadi ayni shu axborotning "harakati"dir, bu "harakat" esa til vositasida bo'ladi. Shuning uchun ham tilshunoslik xuddi shu "harakatdagi axborot"ning asosiy va yirik birligini izladi, natijada gapni ana shunday yirik birlik sifatida uzoq davrlar e'tirof etib keldi². Ko'rib turganimizdek matnning yuzaga chiqishi uchun so'zlovchi va tinglovchi munosabati muhim. Muloqotning amalga oshishida, albatta, shaxsning ruhiy holati hisobga olinadi. Inson psixologik va ruhiy holatini bilish jarayonida nafaqat psixologiyaga oid tadqiqotlar, balki uning til xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Buyuk rus psixolog va tilshunos olimi Vigotskiy "Hamma joyda – fonetikada, morfologiyada, leksika va semantikada, hatto ritmika, vazn va musiqada – grammatik va shakliy kategoriyalar ortida psixologik omillar yashiringan!" – degan fikrini keltirib o'tadi³. Psixolingvistika sohasining vazifalaridan biri til birliklari ortida yashiringan insonning ruhiy holati, xususan, temperamenti bilan bog'liq holatlarni o'rganishdan iboratdir. Psixolingvistikada o'ziga xos yo'nalish yaratgan V.P.Belyanin o'zining "Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе)" nomli kitobida matnni psixolingvistik tahlil qilib, matnda ifodalangan emotsiya turlariga ko'ra ularni 6 turga ajratadi: 1) yorug' matnlar; 2) qorong'i matnlar; 3) qayg'uli matnlar; 4) quvnoq matnlar; 5) chiroyli matnlar; 6) murakkab matnlar⁴. V.P.Belyanin yuqoridagi matn turlari tahlilida insonning qanday hissiyotlari ustunlik qilganligini psixolog sifatida aniqlash barobarida ularda qanday lingvistik birliklar qo'llanganligiga ham e'tiborini qaratadi. Olim badiiy asarning psixolingvistik tahliliga

¹ E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» 2004, Buxoro

² S.Muhammedova, M.Saparniyozova "Matn lingvistikasi" – T.: 2011 7-bet

³ Белянин. В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 9.

⁴ Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – 248 с.

bag'ishlangan asarida⁵ hissiy-mazmuniy dominanta badiiy matn yaratilishida asosiy uyushtiruvchilik vazifasini bajarishi haqidagi fikrni ilgari surdi. Uning qarashicha, hissiy-mazmuniy dominanta "matn yaratilishi yadrosi sifatida badiiy matnning mazmuni, tuzilishi, sintaksisi, uslubi va leksik tanlovini belgilab beradi"⁶. V.P.Belyanin hissiy-mazmuniy dominanta terminini quyidagicha izohlaydi: "Hissiy-mazmuniy dominanta muayyan shaxs tipi uchun xarakterli bo'lgan hamda olam manzarasi, matnni metaforalashtirish va verballashtirish uchun psixik asos bo'lib xizmat qiladigan kognitiv va emotiv etalonlar tizimidir"⁷. V.P.Belyanin hissiy-mazmuniy dominanta haqidagi qarashida matnda ifodalangan muayyan vaziyatni shaxs aksentuatsiyasi bilan bog'laydi⁸.

O'zbek tilidagi matnlarda temperament va xarakterga xos xususiyatlar turli xil usullarda va ko'rinishlarda aks etishi mumkin. Xususan, sangvinik temperament tipiga xos bo'lgan til birliklari quyidagi holatlarda aks etadi.

1. Asar personajining xarakteriga xos birliklar uning nutqi orqali aks ettiriladi:

-E, do'xtirjon! Qiynab nima qilasiz, odamni! Aytyapman-ku, soppa-sog'man! Rahmat, yaxshi davoladinglar. Esingizdami, bannisaga kelgan kunlarim, bir lunjimosilib yotuvdi. Og'iz -yomg'irda qolgan o'choq! Qo'lim bilan to'g'rilayman deb harchand urinaman, qani joyiga kelsa, tag'in qiyshayib qoladi, xumpar! Ko'zning ham bittasi katta, bittasi kichkina edi! Mana hammasi bip-binoyi! Endi, do'xtirjon, bizga javob bersangiz..... (O'tkir Hoshimov "Ikki karra ikki-besh" qissasi). Asar qahramoni bo'lgan Qo'shoqvoyning tilidan olingan yuqoridagi parchada biz yaqqol sangvinik temperament tipi namunasini ko'rishimiz mumkin. Matndan biz qahramonning juda yuqori kayfiyatda ekanligini va boshqalarga murojaat qilishda ham ma'lum bir so'zlar kuchli urg'u berib aytishini kuzatishimiz mumkin.

Xullas, kayfim chog' edi. Xursand holda ashulani vang qo'yib uyga qaytardim. Qorin ham ochgan, oyijonim pishirib qo'ygan palovjonni ko'z oldimga keltirib har zamonda lablarimni chapillatib qo'yaman. Hozir borib palovxonto'rani pok-pokiza tushiraman-u, qorinni qashlab yotib, televizor ko'raman, deb o'ylayman-da, ashulaning avjiga chiqaman. (Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib" romani). Ushbu matnda ham bosh qahramon Hoshimjon tomonidan palov, pokiza so'zlariga urg'u berilishi, vang qo'yib, chapillatib, avjiga chiqaman kabi til birliklarining qo'llanishi, birinchidan nutq egasining kayfiyati yuqoriligini, ikkinchidan, o'zidagi xursanchilik kayfiyatini boshqalardan yashirmasligi sangvinik tipiga xos xususiyat hisoblanadi.

1. Personajning xarakter xususiyatlari asar muallifining nutqi orqali bevosita beriladi. Sangvinik xarakter tipiga oid til birliklarining muallif tomonidan aks ettirilishi quyidagi misollarda namoyon bo'ladi.

Dunyoda mazza qilib kuladigan odam ikkita bo'lsa, bittasi Yo'ldosh Sulaymon edi! Agar dunyoda mazza qilib kuladigan odam bitta bo'lsa ham shu Yo'ldosh akaning o'zi edi! Ko'p qavatli qilib "vo-vo-vo-o-oh!" deb kulganida har qanday "zahar" odamning ham chehrasi yorishib ketadi. Hatto, Said Ahmad aka "men sening qarishingdan qo'rqaman-da, ukam, bir kuni kulaman, deb kuching yetmay qoladi-yu, "pirt" etib joning chiqib ketadi-da!" deb yurardi. (O'tkir Hoshimov "Ajdarining tavbasi" qissa va hikoyalar to'plami)

Yuqoridagi matnda qahramon xarakteriga xos xushchaqchaqlik va uning ruhiy holati muallif tomonidan bevosita aks ettirilgan. Ta'riflanuvchi shaxsning doimo ko'tarinki kayfiyatda yurishi va uning kulish jarayoni, hatto uning yonidagi insonlarga ham yaxshi kayfiyat baxsh etishi uning sangvinik tipiga xos ekanligini ko'rsatadi.

⁵ Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – Б. 17.

⁶ Белянин В.П. Кўрсатилган асар.

⁷ Белянин В.П. Кўрсатилган асар. – Б. 23.

⁸ Белянин В.П. Кўрсатилган асар.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» B.: 2004.
2. S.Muhamedova, M.Saparniyozova "Matn lingvistikasi" – T.: 2011
3. Белянин. В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000.
4. O'tkir Hoshimov "Ajdarning tavbasi" . T.: "O'zbekiston", 2012.
5. Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib" T.: "Yangi asr avlodi" , 2010.